ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

FAYZIYEVA SAODAT IXTIYOROVNA

O‘ZBEK JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTI TADQIQI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133.09

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology Sciences

Fayziyeva Saodat Ixtiyorovna
O‘zbek jadid adabiyotshunosligida Sharq va G‘arb adabiyoti tadqiqi 3

Файзиева Саодат Ихтиёровна
Исследование восточной и западной литературы в узбекской джадидской литературоведении 25

Fayzieva Saodat Ikhtiyorovna
The study of Eastern and Western literature in Uzbek jadid literary studies..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

FAYZIYEVA SAODAT IXTIYOROVNA

O‘ZBEK JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTI TADQIQI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2466 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karimov Bahodir Nurmetovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yusupova Dilnavoz Rahmonovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rahmonova Dildora Mirzakarimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “26” 08 soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (365 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “10” 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil “10” 08 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S. Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon adabiy-estetik tafakkuri rivojida millat ruhini oziqlantiruvchi ildizlar muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday millat borki, uning adabiy merosi, o‘ziga xos urf-odatlari shu xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Adabiyot ham xuddi shu omillardan biri bo‘lgani holda, inson ruhiy olamining tajassumidir. XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish hamda erk va hurriyat g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan jadidchilik harakati tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o‘zining shakllanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, asr boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo‘lgan birinchi bosqichida nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy harakat sifatida ham uzil-kesil rasmiylashdi. Zero, “bu ulug‘ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi”[1].

Dunyo adabiyotida jadid adabiyotshunosligini hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligi, xususan, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidchiligiga qo‘yilgan tamal toshi deyish mumkin. Chunki bu davrda ijod qilgan adabiyotshunoslar (Abdurahmon Sa’diy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Elbek va boshqalar) o‘zbek adabiyotshunosligini jahon adabiyotshunosligi tamoyillari bilan boyitgan holda qayta modellashtirishga harakat qilishgan[2]. Sharq va G‘arb adabiyotining alohida va bir-biriga qiyoslab o‘rganilishi esa bu jarayonni yana ham rivojlantirgan, deyish mumkin. Sharq adabiyotini o‘rganish, uni tarjima va tahlil qilish an’anasi o‘zbek adabiyotining eng qadimgi davrlaridan beri shakllangan bo‘lib, bu jihat asarlardagi sayyor syujetlar, tazkiralardagi shoirlarning hayoti va ijodiga oid qaydlarda ham ko‘rinadi. Jadid adabiyotshunosligi davrida bu an’ana taraqqiy topib, tadqiq doirasi nafaqat Turkiston hududida istiqomat qilgan ijodkorlar, balki yaqin Sharq va Xitoy o‘lkalari adabiyot vakillari tomonidan ham keng ko‘lamda o‘rganila boshlangan.

G‘arb adabiy-estetik tafakkuri tarixi jadidlar uchun azaldan qiziq mavzu edi. Tahsil olish uchun qilingan safarlar, o‘zga tildagi adabiyotlarni o‘qiy olish qobiliyatining shakllanishi, tajriba orttirish va zamonaviy dunyoqarashni boyitish maqsadida qilingan tashriflar bu jarayonni ham tezlashtirib bergan. XX asr boshlarida jadid adabiyotiga yangi janrlarning kirib kelishi bevosita adabiyotshunoslik tadqiq obyektlarini ko‘paytirish barobarida yangi tadqiqot usullari va janrlarini ham

---

[1] Uchinchi Renessans nima degani? O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-avgust kuni matbuot vakillariga bergan intervyusidan. https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/#

[2] Qarang: Фитрат.Танланган асарлар. 2 жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият, 2000; Фитрат. Танланган асарлар. V жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият, 2010; Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. – Тошкент: Ўрта Осиё давлат нашриёти, 1924; Чўлпон. Адабиёт надир. (Нашрга тайёрловчи Қуронов Д., Эшонова З., Султонов У.). – Тошкент: Чўлпон, 1994; Элбек. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Узоқов). – Тошкент: Шарқ, 1999.

shakllantira boshladi. Jadid matbuoti XX asrning 20–30-yillarida adabiyotshunoslikning asosiy manbasiga aylangani holda, bir necha gazeta va jurnallar adabiyot, tahlil, tarjima va adabiy tanqid uchun alohida ruknlar ham tashkil qildi. “Qizil yo‘l”, “Yosh kuch”, “O‘zgarishchi yoshlar”, “Bilim o‘chog‘i”, “Ko‘mak”, “Inqilob”, “Zarafshon”, “Mushtum”, “Maorif va o‘qitg‘uchi”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yer yuzi”, “Bilim uchquni”, “Alanga”, “Tong yulduzi”, “Xudosizlar”, “Yangi yo‘l” kabi davriy matbuot namunalarini bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan nashrlar sifatida sanash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuviga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asr boshlarida jadid ziyolilarining jadid adabiyoti, uning taraqqiy etishi haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlari ushbu mavzu tadqiqining boshlang‘ich nuqtasi deyish mumkin. O‘zbek jadidchilik harakati va uning hayotimiz turli jabhalariga ta’sirining nazariy va amaliy masalalari dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligida ma’lum darajada tadqiq etilgan. Mavzuning o‘rganilishi jadidchilik harakatining o‘rganilishi bilan parallel kechgan. H.Boltaboyev, D.Quronov, I.G‘aniyev, B.Karimov, N.Jabborov, U.Jo‘raqulov, G.Ernazarova, N.Namozova va boshqa bir qator olimlarning dissertatsiyalarida[3], B.Qosimov, N.Karimov, S.Ahmad,

[3] Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1996; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1998; Ғаниев И. Фитрат драмаларининг поэтикаси. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1998; Каримов Б. Вадуд Маҳмуднинг 20–йиллар адабий танқидчилигидаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1995; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2002; Жабборов Н. А. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филология фан. номзоди дисс. – Тошкент, 1994; Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1998; Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (А.Чўлпон, Ғ.Ғулом,

U.Dolimov, B.Do‘stqorayev, B.Karimov, Z.Abdirashidov kabi olimlarning risola va tadqiqotlarida[4], B.Qoriyev, Sh.Turdiyev, I.G‘aniyev va N.Afoqova, F.Nuriddinovalarning bibliografiyalarida[5], shuningdek, bir necha olim va tadqiqotchilarning kitoblari va maqolalarida[6] mavzuga doir ma’lumotlar mavjud. Turkistonda jadidchilik harakati hamda shu jarayon asosida yuzaga kelgan yangi adabiyotni tadqiq qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar masalaga chuqur kirgani holda, ularda jadid adabiyotining yuzaga kelishi, uning g‘oyaviy-ma’rifiy jihatlari, jadid ijodkorlarining uslub yaratish mahorati, adabiyotshunosligimiz ildizlarini belgilash singari masalalarning fundamental asoslarini tahlil qilish ko‘zga tashlanadi.

Jadid adabiyotshunosligida Sharq va G‘arb adabiyotining o‘rganilishi turli aspektlarda tadqiq qilinganiga qaramay, uning yangi o‘zbek adabiyotiga ta’siri

---

А.Орипов шеърияти мисолида). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001; Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001; Аҳмедова Ш. Ўзбек адабий танқидининг жанрлар таркиби. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2010; Амонов Ш. Ҳамза шеъриятининг манбалари, матний тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010; Абдулхайиров Б. Миён Бузрук Солиҳов – ўзбек жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2017; Пардаев Қ. Миллий уйғониш даври манбаларида адабий ва публицистик муаммолар талқини (“Ал-ислоҳ” журнали материаллари асосида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. Махмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири. Фалсафа фан. номз. дисс. – Тошкент, 1996; Аҳророва З. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий-амалий фаолияти. Пед. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1997; Саидов Ҳ. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1998; Алимова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент: Академия, 1999; Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикаси. – Тошкент, 2001; Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002; Ражабова Д.Н. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2003; Нишонова Г. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойина” журналининг ўрни ва аҳамияти. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008; Амриддинова Д.Т. Самарқанд жадидчилигининг ижтимоий-фалсафий асослари. Фалсафа фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006; Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири ва XX аср бошлари). Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Авазов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижодий мероси. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1995.

[4] Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2009; Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: Университет, 2000; Абдирашидов З. Туркистонда жадидчилик. Тошкент: Akademnashr, 2023.

[5] Турдиев Ш., Қориев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси – Тошкент: Фан, 1967; Ғаниев И., Афоқова Н. Жадид адабиёти ва адабиётшунослиги библиографияси – Тошкент: Akademnashr, 2012; Nuriddinova F. Milliy matbuot fixristi. 1-kitob. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2010.

[6] Саид Зиё. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. – Тошкент-Самарқанд: Туркистон давлат нашриёти, 1927; Нуриддинова Ф. Турон жавоҳирлари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – Б. 214–235; Миллий матбуот саҳифалари. – Тошкент: Маънавият, 1999; Билим мезони ҳақида сўз // Ўзбекистон матбуоти. – 2010. №4. – Б. 75–77; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. – Тошкент: Маънавият, 2000; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент, 2007; Каримов Б. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2006; Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006; Дўстқораев Б. Яссавий ким эди? – Тошкент: Халқ мероси, 1994. – Б. 5; Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009; Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002; Ҳалимова С. “Садойи Туркистон” газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари (1914–1915). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Toshkent: Akademnashr, 2011. Пардаев Қ. “Ал-ислоҳ” журналида адабиёт материаллари. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 16; Ҳасанов Н. Яссавий ва Фитрат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. №3. – Б. 3–11.

masalasi, jadid adabiyotshunoslarining adabiy-estetik qarashlari shakllanishi va adabiy an'analarning jadid adabiyotidagi sintezini belgilash muammolari hali to‘liq yechimini topmagan. Shu jihatdan mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli ravishda mavzu ilk bor monografik tarzda o‘rganilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek jadid adabiyotshunosligida nazariy masalalarga tayanib tekshirilgan Sharq va G‘arb adabiyoti siymolari va asar namunalarini tadqiq etish va ularni tekshirish asnosida yangi adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadid adabiyotshunosligining shakllanish manbalarini chuqur tahlil qilish va ularni asoslash;

jadid adabiyotshunoslarining ilmiy merosini o‘rganish asnosida ularning Sharq va G‘arb adabiyotiga munosabatini tekshirish;

Sharq va G‘arb adabiyoti siymolari va ularga tegishli bo‘lgan asarlarning tadqiqini eski o‘zbek yozuvidagi darslik va gazeta-jurnal namunalaridan topib to‘plash;

eski o‘zbek yozuvida bosilgan tarjima asarlardan namunalarni tabdil qilib, ularning mundarijasini shakllantirish, mavzuga tegishli materiallarni saralash;

Navoiy va boshqa Sharq mumtoz adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodining jadid adabiyoti davridagi holatini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida eski o‘zbek yozuvidagi "Bilim o‘chog‘i", "Inqilob", "Maorif va o‘qitg‘uchi", "Qizil O‘zbekiston", "Yer yuzi", "Bilim uchquni", "Alanga", "Yangi yo‘l" kabi vaqtli matbuot nashrlari; Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Vadud Mahmudlarning "Tanlangan asarlar"i, "Adabiyot parchalari" darsligi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini jadid adabiyotshunosligidagi Sharq va G‘arb adabiyotini qiyosiy o‘rganish va eski o‘zbek yozuvidagi matnlarni tabdil qilinganlari bilan solishtirish natijasida olingan xulosalar, adabiy materiallar tasnifi va tahlili, adabiy-estetik ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda statistik tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, biografik metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jadid adabiyotshunosligida Sharq va G‘arb adabiyoti masalasi davr ijtimoiy-siyosiy muhiti va adabiy aloqalari kesimida ilk bor monografik tarzda asoslanib, "Maorif va o‘qitg‘uchi", "Yer yuzi", "Alanga", "Inqilob", "Tong yulduzi", "Bolalar dunyosi" kabi jadid nashrlarida berilgan yuzga yaqin adabiy materiallar mavjud manbalar bilan qiyosiy tekshirilib, misollar asosida dalillangan;

jadid adabiyotshunosligining asosiy manbasi bo‘lgan matbuotda bosilgan Sharq va G‘arb adabiyotiga doir namunalar tekshirilib, ularning janrlari tasnifi aniqlangan;

"Maorif va o‘qitg‘uchi", "Yer yuzi" jurnallarida chop etilgan ellikdan ortiq tarjima asarlarni tekshirish natijasida ularning, asosan, ruschadan tarjima qilingani aniqlanib, Hind, xitoy, rus va ingliz adabiyoti namunalari bo‘lgan bu asarlar janr jihatdan, asosan, hikoyalardan tashkil topgani aniqlangan;

jadid adabiyotshunosligida oldingi davrda uchramagan quyidagi yangiliklar aniqlangan: ayol-qizlar ijodiga alohida e'tibor qaratilgani, buning natijasi o'laroq matbuotda Zebunnisobegim haqida alohida maqola chop etilgani; G'arb adabiyoti vakili Shekspir haqida maqola e'lon qilingani; Kultegin bitiktoshi yuzasidan tekshirishlar olib borilib, parchalar tarjima qilingani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jadid manbalari chuqur tekshirilib, ularning adabiy jarayonga ta'siri baholangan, ilmiy mezonlar asosida ochib berilgan;

aniqlangan adabiy materiallarning jadid adabiyotshunosligida Sharq va G'arb adabiyoti tadqiqiga taalluqli qismi ajratilgan va tahlil qilingan;

manbalarning aksariyati matbuotda bosilgani uchun matbuot tilining badiiy asar poetikasiga ta'siri aniqlanib, ayrimlari kitob holida chiqqan manbalar bilan qiyoslanib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

jadid adabiyotida Sharq va G'arb adabiyotidan ta'sirlanish holatlari tadqiq qilingan va qiyosan taqqoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan materiallarning jadidchilikning o'rganilishidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud kabi jadidlarning "Tanlangan asarlar"i bilan amalga oshirilgan tabdillarning mosligi, ishonchli manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek adabiyotida muhim bosqich bo'lgan jadid adabiyoti va adabiyotshunosligi uchun yangi materiallar qo'shishi, tabdillarning qiyosiy o'rganilishi va ayrim xatoliklarning bartaraf etilishi bilan xarakterlanishi, shuningdek, Sharq va G'arb adabiyotiga jadid munaqqidlarining qarashlari bitta manbaga jamlangani uning ta'limdagi ahamiyatini ham oshirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "O'zbek adabiyoti tarixi", "Milliy uyg'onish davri adabiyoti", "Chet el adabiyotshunosligi tanqidchiligi va tarixi", "Tarjima nazariyasi", "Xorijiy adabiyotshunoslik", "Adabiyot nazariyasi" darslarida, shuningdek, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan kurslar tashkil etishda, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini boyitish, ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot matijalarining joriy qilinishi. O'zbek jadid adabiyotshunosligida Sharq va G'arb adabiyoti tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jadid adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy asoslarining ochib berilgani, jadid olimlarining Sharq va G'arb adabiyotini tadqiq qilgani va buning natijasida yangi o'zbek adabiyotida bir necha yangi atama va tushunchalarning paydo bo'lishiga qo'shgan hissalarining tahlil qilingani; jadid olimlaridan bir nechtasi, xususan, A.Fitrat, V.Mahmud, A.Sa'diy kabilarning adabiyotshunos sifatidagi ijodining o'ziga xosligini ko'rsatib berilgani; jadid adabiyoti namunalarida Sharq va G'arb adabiyotining ta'sirini nazariy tamoyillar bilan yoritib berilgani bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek,

rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-oktyabrdagi 04/1-2709-son ma’lumotnomasi). Natijada jadid adabiyotshunosligining Sharq va G‘arb adabiyotini tadqiq qilish mezonlariga tayanilib, jadidlarning adabiy siymolar biografiyasini yaratish mahoratidagi ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

jadid adabiyotshunosligining turli gazeta va jurnallardagi namunalari tabdil etilib, hozirgi ayrim mavjud manbalar bilan qiyoslangani, jadid adabiyotshunoslarining qarashlaridagi tafovutlar va mushtarak jihatlar misollar yordamida taqqoslangani, jadid adabiyotshunosligida G‘arb adabiyotini tadqiq qilish jarayonida ayrim sifatli tarjimalarning amalga oshirilganligi va bu asarlarning o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalalari aniqlanib, turli tizimli tekshirishlar bilan asoslangani haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-oktyabrdagi 04/1-2710-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha jadid adabiyotshunosligida G‘arb adabiyotini tadqiq qilish jarayonida ayrim sifatli tarjimalarning amalga oshirilganligi va bu asarlarning o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalalariga oid materiallar bilan boyitilgan.

jadid adabiyotshunosligi milliy uyg‘onish va zamonaviylik g‘oyalariga tayanganligi; badiiy asarni mantiqiy-analitik ko‘rib chiqish aynan shu davrda boshlangani; Alisher Navoiy va boshqa islom Sharqi ijodkorlarining biografiyasini tiklash masalasi asosiy maqsad qilib qo‘yilgani, jadid darsliklarida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ijodidan namunalar berilgani va ularning amaliy ahamiyati to‘g‘risidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022-raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-apreldagi 01/4-1635-son ma’lumotnomasi). Natijada ijodkorlar hayoti va ijodi haqidagi maqolalarda uchraydigan tafovutlarning sabablari hamda ularni qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta’minlagan.

“Maorif va o‘qitg‘uchi”, “Yer yuzi” jurnallarida chop etilgan ellikdan ortiq tarjima asarlarni tekshirish natijasida ularning, asosan, ruschadan tarjima qilingani, Hind, xitoy, rus va ingliz adabiyoti namunalari bo‘lgan bu asarlar janriga doir ilmiy ma’lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalida efirga uzatiladigan “Oydin hayot live” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 01-44-341-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv “Maorif va o‘qitg‘uchi”, “Yer yuzi” jurnallarida chop etilgan ellikdan ortiq tarjima asarlar tahliliga oid ma’lumotlar bilan ilmiy saviyasi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati izohlangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti, predmeti ham ko‘rsatib berilgan, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan, shuningdek, tadqiqotning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochiqlangan va amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot bo‘yicha e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jadid adabiyotshunosligiga xos yetakchi tamoyillar”** deb nomlanib, birinchi faslda ***“Yangi adabiy-estetik tafakkurning shakllanish manbalari”*** mavzusida bahs yuritiladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida adabiyotimiz tarixida yangi adabiy-estetik tafakkur shakllana boshladi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmay, tarixiy-madaniy evrilishlar natijasi o‘laroq yuzaga keldi. Yangi adabiy-estetik tafakkurning shakllanish manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Qur’oni karim va Hadisi sharif*. Turkistonda yangi adabiy-estetik tafakkur, eng avvalo, o‘ziga axloqiy-ma’naviy manbalarni asos qilib olishi kerak edi. Shu jihatdan bu masalada Qur’on va hadis ilmi yetakchi rolni bajargan. O‘zbek adabiyotiga yangi adabiy tur va janrlarning kirib kelishi o‘ziga xos yangilik bo‘lib, bu omil millat tafakkuridagi ko‘tarilish jarayoniga asos bo‘ldi. Dramatik turda yaratilgan asarlar nafaqat millatning horigan va ezilgan qiyofasini namoyon qilar, balki adabiyotshunos olimlar uchun yangi estetik qarashlar obyektiga aylangan edi. Jadid ijodkorlarining asarlariga Qur’on ta’limotidagi ilmga, halollik, sabr, adolatga da’vat etuvchi oyat va kalimalar singdirilgan. Behbudiyning “Padarkush” dramasida ilmning yangi asrga qadam qo‘ygan inson hayotidagi yetakchi o‘rni ko‘rsatilib, bekorchilik, bilimsizlik, aysh-ishratga berilish faqat ba’zi odamlarga emas, balki ularning yaqinlariga – jamiyatga katta kulfat keltirishi, fojiaga sabab bo‘lishini ochiq tarzda aks ettiriladi. Keyinroq Hamza o‘zining “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi” asarlarida, Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov”, Hoji Muin “Eski maktab, yangi maktab”, “Ko‘knori”, “Mazluma xotun” kabi asarlarida aynan jamiyatdagi ilmsizlik va johillikning zararli oqibatlarini qalamga oladi. Asarlarni tahlil va tadqiq qilishda munaqqidlar, albatta, asar mazmuni va undagi g‘oyadan kelib chiqib yondashishgan. Bu esa bevosita Qur’on va hadisdagi axloqiy-ruhiy qadriyatlar bilan hisoblashishga olib kelardi. Islomiy qadriyatlar bilan hisoblashish jadid adabiyotshunosligida “jadidchilik” va “qadimchilik” masalalariga ham borib taqaladi. Jadid adabiyotshunoslari

“qadimchilar” (hozirgi til bilan aytganda, “an’anaviychilik”[7] tarafdorlari) qarashlari bilan ham hisoblashganiga diqqat qaratish zarur. Behbudiy va Vasliy Samarqandiy o‘rtasidagi adabiy bahslar bunga misol bo‘la oladi[8].

2. *Ilmi balog‘a.* Mumtoz adabiyotshunoslikdagi ilmi balog‘a ilmi bayon, ilmi ma’oniy hamda ilmi bade’ qismlaridan iboratdir. Jadid adabiyotshunosligida ilmi balog‘a ifodaning ravonligi va aniqligini asosiy mezon qilish, ruhiy holat va mazmun uyg‘unligini ta’minlash ehtiyoji, badiiy tasvir vositalarini uslubiy kuch sifatida talqin qilish ko‘rinishida davom ettirilgan. Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligida bu masalalarga “Tilda so‘zlarning qo‘llanishi ham uslub masalalari”, “She’riy ijodlarni turlarga ajratish”, “Shoirlarda ijod kuchlari va ijodka bog‘li bo‘lgan xususiyatlar”, “Nasriy ijod va ularning turlari” kabi boblar doirasida to‘xtalib o‘tishga harakat qiladi[9].

3. Mumtoz adabiyot. Jadid adabiyotshunosligining ildizlari mumtoz adabiy-estetik tafakkur bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, bu bog‘liqlikni quyidagi yo‘nalishlarda kuzatish mumkin: *tazkirachilik an’analari; ilmi balog‘a va badiiy tasvir vositalari tahlili; komil inson konsepsiyasi; badiiy ifodaning ruhiy-estetik qatlami.* Bu davrga kelib “an’anaviy tazkirachilikda kuzatilgan “qisqa ma’lumot berish usuli” kengayib, unda so‘z yuritilgan shoirlar ijodidan bir necha baytlar keltirish bilan kifoyalanmasdan, o‘sha shoirning ko‘plab sara asarlarini berish orqali u haqda tasavvur uyg‘otishga intilish kuchaygan”[10]. Bu omil keyinroq shakllangan antologiya va xrestomatiyaga yaqinlashuvni yuzaga keltiradi.

Mumtoz adabiyotshunoslikning manbasi bo‘lgan barcha asarlarning asosiy vazifalaridan biri insonni komillikka yetaklash hisoblanadi. Klassik Sharq ijodkorlarining asarlarida komil inson nafsini poklagan, qalbini tozalagan, ilohiy muhabbatga yetish yo‘lida hech nimadan chekinmaydigan shaxs sifatida tasvirlansa, “jadidlarning komil inson g‘oyasida tasavvuf g‘oyalari bilan davr talabi va milliy zaminga moslashtirilgan G‘arbdagi har tomonlama yetuk shaxs g‘oyalarining o‘ziga xos omixtasini ko‘rish mumkin”[11]. Yangi adabiy-estetik tafakkur hosilasi bo‘lgan asarlarda insonning komilligi quyidagi xususiyatlar bilan ifodalangan: ma’rifat, axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy uyg‘oqlik. Nasrda bu tarbiyaviy hikoya shaklida, she’riyatda ramziy obrazlar orqali, dramada fojia shaklida ifodalangan. Alisher Navoiy asarlaridagi komil inson qiyofasi jadidlar uchun eng yetuk namuna vazifasini bajargan.

Badiiy ifodaning ruhiy-estetik qatlami timsollar tasnifida, ayniqsa, yaqqol seziladi. Jadid ijodkorlari asarlaridagi obrazlarni olima Sh.Nazarova quyidagicha guruhlarga ajratadi: 1) oshiq-ma’shuq tizimidagi obrazlar; 2) tabiat unsurlari bilan bog‘liq timsollar; 3) vaqt o‘lchovi bilan aloqador timsollar; 4) yo‘l motivi bilan bog‘liq timsollar; 5) ruhiy holat bilan bog‘liq timsollar; 6) diniy-tasavvufiy timsollar; 7) tarixiy

---

[7] Zikrullayev M. “Jadidchilar” va “qadimchilar” bir-biriga dushman bo‘lganmi? – Inkor va mushtarak maqsadlar // https://oyina.uz/uz/article/556

[8] Behbudiy M. Teatr nadur // Oyna, 1914, 29-son; Vasliy S. Shariati Islomiya // Sadoyi Farg‘ona, 1914, 83-son.

[9] Sa’diy A. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1924. – 205 b.

[10] Болтабоев Ҳ. XX аср бошларида ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: фил. фан. док... дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 17.

[11] Саидов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида комил инсон масаласи: филол. фанлари номзоди...дисс. Тошкент. 2002. – Б. 70.

shaxslar timsoli, ya’ni siymolar[12]. Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, jadid adabiyotshunosligi yangilik va islohot tamoyillariga suyangan holda rivoj topgan bo‘lsa ham, mumtoz adabiyotshunoslikning asosiy mezonlarini o‘ziga singdirgan, ularni zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy maqsadlar bilan sintezlashtirib Sharq adabiy tafakkuriga bog‘lagan.

4. *Sharq va G‘arb adabiyotshunosligi.* Sharq adabiyotshunosligidan asos qilib olingan jihatlar quyidagilarda ko‘rinadi: ilmi balog‘a, mumtoz adabiyotdagi nazariy ta’limotlar, adabiy janrlar tavsifi, badiiy nutq va uslub masalalari. Jaloliddin Rumiy asarlarida ilgari suriladigan shakl va mazmun birligi G‘arb adabiyoti va falsafasi uchun asos bo‘lgani holda, keyinchalik jadid munaqqidlari izlanishlarida quyidagi talqinda reallashadi: Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida bu masalani “mavzu, mundarija” atamalari bilan talqin qiladi. Adabiyotshunos obraz, syujet, kompozitsiya va badiiy nutqni shakl unsurlari sifatida sanaydi. Turkiy adabiyotda badiiy nutq va uslubga doir qarashlar Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq”, Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarlarida aks etgan. Jadid munaqqidi Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobida uslub borasida quyidagilarni yozadi: “Uslub degan narsa shoir va muharrirlarning tabiatiga qarab, shunga muvofiq bo‘lib yasaladir. Oddiy muharrirlarning uslublari bir-birisindan ortiq ayrim va mustaqil bo‘la olmasdan, o‘rtoq bo‘lg‘on umumiy bir yo‘ldanroq borsa-da, katta va kuchli talantli shoirlarning va ayniqsa, dohiylarning uslublari bir-birisindan tamom ayrim va mustaqil bo‘ladirlar”[13]. G‘arb adabiy-estetik qarashlaridan ham yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligiga bir necha o‘zlashmalar bo‘ldi. Xususan, endi badiiy asarni hayot bilan bog‘lab tahlil qilish an’anasi shakllana boshladi. Yana adabiyotshunoslikdagi ijodkor laboratoriyasi masalasi ham aynan G‘arb adabiyotshunoslarining tadqiqotlari ta’siri sabab yuzaga keldi. Fitrat “Adabiyot qoidalari”ning “Yozish qoidalari” qismida ijodkorning ijod jarayoni xususida quyidagicha yozadi: “Bir asarni yozg‘onda zehnimizning yumushi (xizmati) turli tuslarga kiradir. Yozg‘uchi-adib boshqa shul to‘g‘risida yozilaturg‘on bir narsani topadir. So‘ngra shul narsa to‘g‘risida o‘ylar, tuyg‘ularni ajratib topib yig‘adir. Zehniy yumushning shu bo‘limiga ijod (bor etish, yaratish) deyiladir”[14]. Abdurahmon Sa’diy esa ijod jarayonida nafosat hissi, ilhom, dohiylik, tarbiya, ma’lumot, mehnat (ijodiy mehnat), yangilik kashf etish salohiyati yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi[15]. G‘arb adabiy estetik tafakkuridagi bir necha publitsistik janrlar, xususan, esse, ocherk, felyeton kabilar jadid matbuotining rivojida muhim o‘rin tutdi. Rus maktablari ta’sirida jadid adabiyotshunosligi davrida pedagogik adabiyotshunoslik ham yuzaga keldi. Endi adabiy-estetik g‘oyalarni darsliklar vositasida o‘quvchiga yetkazish jarayoni faollashib, maktablarda “o‘qish kitobi”, oliy o‘quv dargohlarida “amaliy ham nazariy darslar” kabi qo‘llanmalar ko‘paydi. Bunday tashqari, darslikdagi badiiy tahlil jarayonida realistik tahlil an’analari ustuvorlik qila boshladi. Yana G‘arb adabiyotshunosligidagi bir necha oqimlarning o‘zlashtirilishi ham yangi hodisa bo‘ldi.

---

[12] Назарова Ш. XX аар бошларида ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойиллари (янги ўзбек шеърияти контекстида). – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 133

[13] Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. – Тошкент: Ўрта Осиё давлат нашриёти, 1924. – Б. 39.

[14] Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд (нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият. 2006. – Б. 14.

[15] Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 102.

Bobning 2-fasli ***“Jadid adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy mezonlari”*** deb nomlanib, mazkur faslda jadid adabiyotshunosligining yuzaga kelishi, xususiyatlariga izoh berib o‘tiladi, uning ilmiy-nazariy asoslari tavsiflanadi.

XX asr o‘zbek adabiy-nazariy tafakkuri tarixida adabiyotshunoslik ilmining butun qiyofa kasb etishi, adabiyotshunoslik taraqqiyoti uchun imkoniyatlar birmuncha kengayganligi va buning natijasida milliy adabiyotshunoslik madaniyat chegaralarini zabt eta boshlagani bilan xarakterlanadi. Jadidlar XX asr boshlarida rus va G‘arb olimlarining tekshirishlari va tadqiqotlari natijalarini puxta o‘zlashtirgan, keyinchalik o‘zbek ilm maydonida ham inqilob va yangilanishlar vaqti kelganini payqagan holda adabiyotshunoslikni mustaqil fan sifatida tadqiq qilishni boshlashgan. Bu davrning ilmiy-adabiy muhitini tashkil etuvchi asosiy omillar sifatida, avvalo, jahon adabiyotshunosligidagi kechgan sifat o‘zgarishlari, ularning o‘zbek olimlariga ta’sirlari, an’anaviy Sharq adabiyotshunosligi, xususan, tazkirachilikning zamonaviy mazmun kasb etgani, 20–yillar matbuotida chop etilgan adabiy-nazariy, adabiy portret tipidagi maqolalar, dramaturgiya, teatr tarixiga oid chiqishlar, sahna asarlariga yozilgan taqrizlar, adabiyotning atrofida kechgan ba’zi masalalar; shu bilan bir qatorda, bu masalalarning yechimi o‘laroq yuzaga kelgan turli adabiy-estetik bahslar[16] ko‘rsatiladi.

Nazariyotchi olim Gegel o‘zining “Estetika”sida aytganidek, biz tadqiq qilayotgan davrda “...didni takomillashtirishga ko‘p bor urinishlar bo‘lsa-da, mavhum nazariyalar yuzaki va chegaralangan edi. Bu nazariyalarning umumiy prinsiplari mohiyatan talabga javob bermas edi. Bundan tashqari, bu davrda alohida badiiy asarlarni xususiy tanqid qilish ham o‘ta zaif bo‘lib, muayyan hukmlarni asoslashga qancha urinmasin, did rivojiga shuncha aks ta’sir ko‘rsatdi”[17]. Shunga qaramay, jadid fidoyilari birvarakayiga bir necha sohada faoliyat olib borishdi. Xususan, Cho‘lponning “Adabiyot nadur?” maqolasi 1909-yilda “Turkiston viloyati gazetasi”da chiqqan Ibrohim Davronning “Shoir nadur?” maqolasini, ayni o‘sha yili Mirmuhsin Shermuhamedov va Saidahmad Vasliy o‘rtasida adabiyotning mohiyati, vazifalari va jamiyat oldidagi burchi haqida olib borilgan bahs-munozaralarini to‘ldirgan bo‘lsa, Abdulla Qodiriyning 1935-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 14-mart sonida bosilgan “Abdulla Qodiriy – Julqunboy dokladidan” hamda “O‘qush – o‘rganush” maqolalarida kichik hikoyalar yozganda so‘zni qanday tejash, bir asar yozishdan oldin yozmoqchi bo‘lgan narsani chuqur o‘rganib chiqishi zarurligi haqida gapiriladi[18].

Adabiyot nazariyasini yaratish masalasi ham jadidlar uchun dolzarb edi. Hay’at tomonidan 1923-yilda shu yo‘nalishdagi kitob yozish mas’uliyati Abdurahmon Sa’diyga yuklatilgan. Uning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobi G‘arb, rus, qozoq, tatar, arab, fors va o‘zbek adabiyoti materiallaridan foydalangan holda tuzilgan va buning natijasida o‘quvchi faqat o‘z adabiyoti bilan cheklanib qolmasdan, qardosh va dunyo adabiyoti bilan tanishish imkoniyatiga ega edi. Lekin G‘arb adabiyoti va undagi oqimlar; sharq adabiyoti va undagi materiallar yetarli bo‘lmaganining hisobiga munaqqid o‘z mulohazalarini ko‘proq bayon qiladi.

Fitrat ham Sa’diy singari ilmiy asoslarga tayangan “Adabiyot nazariyasi”ni yaratish maqsadida “Adabiyot qoidalari” nomli qo‘llanma tayyorlagan. Kitobda

---

[16] Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати: филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 16.
[17] Gegel. Estetika // “Sharq yulduzi”, 2014, 2-son. – B. 136.
[18] Qodiriy Abdulla. Yozuvchi o‘z ijodi to‘g‘risida // Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – 813 b.

“San’at”, “Go‘zal san’atlar”, “Adabiyot”, “She’r”, “Yozish qoidalari”, “Mavzu”, “Mundarija”, “Uslub” singari nazariya uchun qimmatli mavzular ustida mulohazalar bayon qilingan edi. Bu manba shunisi bilan qimmatli ediki, unda nafaqat nazariy bilimlar, balki misollar qismida mumtoz adabiyot vakillari, zamondosh shoir-yozuvchilar ijodidan katta-katta misollar keltirilgan edi.

Bu davrda xalq og‘zaki ijodini o‘rganish ham ma’naviy ehtiyoj kasb etadigan masalalardan biri edi. 1919-yili Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o‘lka musulmon byurosi turkiy xalqlar merosini o‘rganib nashr etish ishlarini yo‘lga qo‘yish haqida qaror qabul qildi[19]. Folklor namunalarini to‘plash uchun tuzilgan guruh tarkibida G‘.Yunus, Elbek, Yudaxin, G‘.Zafariy kabi jonkuyar ijodkorlarning borligi sababli Toshkent, Samarqand, Farg‘ona vodiysidan katta hajmdagi baza to‘plangan. Vatanga muhabbat madh etilgan qo‘shiqlar, alla, yor-yor, ertak namunalari jamlangan bu xazina jadid adabiyotshunosligining yangi qirralarini ochish bilan bir qatorda yozilajak asarlarga ilhom beruvchi manba bo‘lgan.

Jadid adabiyotshunosligi G‘arb nazariyasi bilan Sharq madaniy merosining uyg‘unlashuviga asoslangan edi. Bu ilmiy qarash adabiyotning yangi shakl va janrlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga Sharq va G‘arb adabiyotini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobida adabiy oqimlar haqida mulohazalar berilganda, har bir oqimga mansub ijodkorlar sanab ketiladi. Xususan, klassitsizm oqimiga G‘arb adabiyotidan Milton, Kornel, Rasin, Esxil, Sofokl, Sharq adabiyotidan esa Navoiyga ergashib ijod qilgan barcha ijodkorlarni; ratsionalizm adabiy oqimiga Shekspir, Rable (G‘arb adabiyoti), Yusuf Xos Hojib, Navoiy, So‘fi Olloyor (Sharq adabiyoti) kabi ijodkorlarni; sentimentalizmga Jan Jak Russo, Karamzin (G‘arb adabiyoti), Bobur, Muhammad Solihni (Sharq adabiyoti); romantizmga Bayron, Russo, Pushkin, Gogol, Lermontov (G‘arb adabiyoti); Husayn Boyqaro, Navoiy, Bobur (Sharq adabiyoti); realizm oqimiga Pushkin, Gogol (G‘arb adabiyoti), Behbudiy, Julqunboy (Sharq adabiyoti) kabi shoir-yozuvchilarni kiritadi va ayrimlari haqida mulohazalar beradi[20]. Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida Alisher Navoiyning bir necha g‘azallari tahlil qilinadi, “Majolis un-nafois” asari haqida fikrlar, Boyqaro, Umarxon, Bobur, Komil Xorazmiy she’rlari berilib, ular tahlil qilinadi, Andalibning “Yusuf va Zulayho” asari, Durbek she’rlari, Navoiy ruboiylari tekshiriladi. Demak, nazariy risolalarda Sharq va G‘arb adabiyoti vakillari asarlari to‘la tadqiq qilinmay, ulardan parchalar berilgan holda o‘rganilgan va ular asosiy obyekt emas, yordamchi vosita vazifasini bajargan.

Jadid o‘quv dargohlari uchun tuzilgan darsliklarda ham bu masalalar turlicha bayon qilinadi. Xususan, “Talabalar, o‘qitg‘uchilar va umuman adabiyot sevuvchilar uchun” deya chop etilgan “Adabiyot parchalari” to‘plami 1924–1926-yillarda nashrga tayyorlangan bo‘lib, mualliflar Ashurali Zohiriy va Cho‘lpon “qimmatlik adiblarimizning qimmatlik xizmatlari natijasiz qolmasin uchun…”[21] to‘plamni imkon

[19] Usmonov O. G‘ulom Zafariyning ijodiy yo‘li: filol. fan. nomz.…diss. Toshkent, 1999. – B. 107.

[20] Qarang: Mo‘minova N. Abdurahmon Sa’diyning adabiyotshunoslik merosi: filol. fan. nomz…diss. – Toshkent, 2002. – B. 33–45.

[21] Cho‘lpon A.S., Zohiriy A. Adabiyot parchalari (nashrga tayyorlovchilar: Karimov B., Fayziyeva S.). – Toshkent: Zabarjad media. 2023 – B. 5.

qadar boyitishga harakat qilishgan. Kitobda adabiyot namunalari bilan birga adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar ham bor, xususan, Forobiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy kabi arboblarning tarjimayi holi barobarida, Navoiy va Bobur ijodidan namunalar beriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek jadid adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy asoslari o‘zidan avval Sharq adabiyotida mavjud bo‘lgan ilmiy o‘zanlardan oziqlangan holda yuzaga keldi. Yangiliklarga ochiqlik, jahon ilmi standartlaridan foydalanish qobiliyati jadidlar uchun yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligini yangi bosqichga ko‘tarishga asos bo‘ldi, shuning uchun ham bayonchilikdan xoli sof ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan risolalar yaratildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sharq adabiy-estetik tafakkuri namunalari jadid adabiyotshunoslari talqinida”** deb nomlangan bo‘lib, **1-faslda *“Sharq adib va mutafakkirlari ijodiga biografik yondashuv”*** masalasi tadqiq qilinadi. Sharq va G‘arb estetik tafakkuri vakillari, adabiy siymolar biografiyasini o‘rganish muammosi jadidlar uchun asosiy masalalardan edi. XX asrning 30–yillarigacha jadid adabiyotshunoslari, asosan, o‘zbek mumtoz shoirlari va nosirlarini, hind adabiyoti vakillari va ularning ijodini o‘rganganlar, shu bilan birga, xitoy mualliflaridan ayrim tarjimalar ham amalga oshirilgan. Ijodkor biografiyasini shakllantirish shuning uchun ham muhim ediki, jadid adabiyot nazariyasida o‘rtaga tashlangan ijodiy metodlar orasidagi biografik metod bevosita shu masala bilan bog‘lanardi. Chunki badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi[22], bu metod esa garchi tarjimayi holdan iborat sodda tushuncha bo‘lmasa-da, asosiy mazmuni ijodkor biografiyasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, XX asrning 20–yillari matbuotida Sharq adabiyoti masalalariga e’tibor bir muncha kuchaygan. Matbuot sahifalarida Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Yassaviy, Zebunisobegim, Turdi, Boqirg‘oniy, R.Tagor kabi atoqli yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodiga oid yigirmadan ortiq maqola chop etilgan bo‘lib, ularning ayrimlari o‘zbek munaqqidlari tomonidan yozilgan bo‘lsa, ayrimlari rus munaqqidlari maqolalarining o‘zbekcha tarjimalaridir. Bundan tashqari, Fitratning 1927-yilda Samarqandda chop etilgan “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi, 1929-yilda Toshkentda chiqqan “Fors shoir Umar Xayyom” monografiyasi, 1930-yil “Ilmiy fikr” majmuasining 1-sonida bosilgan “Mashrab” nomli tadqiqotini (1991-yilning 3-iyulida “Yosh leninchi” gazetasida B.Do‘stqorayev so‘zboshisi bilan qayta e’lon qilingan) ham alohida ta’kidlash zarur.

Dissertatsiyada bu maqolalar haqida batafsil to‘xtalish asnosida “O‘zbek shoiri Turdi” nomli maqola ikki muallif tomonidan yozilgani (Majidiy va Fitrat), “Shohnoma”ning turkcha tarjimasi Cho‘lpon tomonidan topilib, jamoatchilikka ma’lum qilingani, “Kultegin” bitiktoshi haqida ma’lumot berish sababi bilan Ne’mat Hakim undan ayrim tarjimalar qilgani haqidagi ma’lumotlar ochiqlangan.

Cho‘lponning “Tagur va tagurshunosliq” maqolasi o‘zbek adabiyotiga hind xalqining buyuk vakili Robindranat Tagor haqida ilk ma’lumot bergan manbadir[23]. Maqola ikki qismdan iborat bo‘lib, uning avvalida Tagorning o‘rganilishi haqida gapirilsa, ikkinchi qismida Tagor hayotidan ayrim lavhalar beriladi. Muallif

[22] Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 166.

[23] Bu maqola Cho‘lponning “Asarlar” to‘plamiga kiritilgan: Чўлпон. “Асарлар” 4 жилд. (Нашрга тайёрловчи Неъматова Д.). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 33.

Robindranat Tagorning tuzukroq tarjimayi holi yo‘qligini ta’kidlaydi va uning asarlari ruschaga o‘girilib chop etilishini pog‘onama-pog‘ona izohlaydi.

Cho‘lpon o‘zi izlagan ohanglarni aynan Tagor ijodida topa olgani uchun uni o‘zbek adabiyotiga tanitishni, asarlarini o‘zbekchada o‘qishni istaydi. Maqola intihosida Cho‘lpon Tagor ijodiga tegishli “Hoy, yo‘lovchi qiz!” she’rini ilova qiladi. Aynan shu chiqishdan keyin bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar soni ko‘paydi va bu hozirgacha davom etib kelmoqda[24]. Yana adib qalamiga mansub asarlarning o‘zbekcha tarjimalari ham ko‘paya boshladi: 20–yillarda turli majmualarda (masalan, “Adabiyot parchalari” to‘plamida “Chiroqlar” she’ri berilgan) Tagorning she’rlari e’lon qilingan bo‘lsa, 50–yillardan uning hikoya va dostonlari matbuot sahifalarida ko‘rindi[25].

Abdulhamid Majidiyning “Sharq shoirasi Zebunniso” maqolasi o‘zbek adabiyotshunosligida ayol ijodkorlar haqida ma’lumot beruvchi ilk manba edi. Unda munaqqid shoiraning ijodidan ko‘ra hayotiga ko‘proq e’tibor qaratishining sababi ham shundandir, balki. Maqolada Zebunnisobegimning saroyda tez-tez mushoiralar o‘tkazib turishi va bu jarayonda yuzaga kelgan ayrim ko‘ngilsizliklar haqida gapiriladi. Shoiraning fors tilida ijod qilganining sababini Majidiy Hindistonda o‘sha paytda fors tilining mavqeyi juda yuqori bo‘lgani bilan baholaydi. Maxfiy taxallusi bilan Zebunnisobegim ijod qilmagan, degan xulosalarga qarshi munaqqid bu to‘plamni aynan Zebunnisobegimga tegishli ekanligini, boshqa gaplar “puch gap”ligiga alohida urg‘u beradi. Ammo T.Jalolov o‘z kitobida, garchi oldinroq o‘zi ham shunday yozgan bo‘lsa ham, bu ma’lumot mutlaqo xato ekanligini isbotlaydi[26].

Jadid adabiyotshunosligida Sharq adabiyoti masalasi nainki, badiiy-adabiy asarlarga, balki, ijodkor shaxsini tadqiq qilishga ham bog‘langan. Bu narsa ikkita omil bilan bog‘liq bo‘lib, birinchidan, o‘sha davrgacha ijodkorlar haqida qisqa-qisqa ma’lumotlar faqat tazkiralarda mavjud va notugal edi. Shu sababdan ham o‘quvchiga o‘qiyotgan asarining muallifini, uning kelib chiqishini tanishtirish juda zarur edi. Ikkinchidan, yangi davr adabiyot nazariyasini shakllantirish jarayonida asarni muallif hayoti bilan bog‘lab o‘rganish ehtiyoji sabab muallif portretini, uning to‘liq biografiyasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lgan.

Ushbu bobning **2-faslida *“Jadid adabiyotshunosligida Navoiy hayoti va ijodinining o‘rganilishi”*** deb nomlangan mavzu muhokamaga olingan bo‘lib, unda jadid adabiyotshunosligida Navoiy mavzusi qay darajada tadqiq qilingani ochib beriladi. Alisher Navoiyning faoliyati va merosini o‘rganish shoirning o‘z davridan, zamondoshlari asarlaridan boshlangan. U haqdagi ma’lumotlarni “Vaqfiya”, “Munshaot”, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi o‘z asarlaridan, zamondoshlarining asarlaridan, XVI–XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlardan bilib olish mumkin. O‘tgan asrning 20–30-yillaridan boshlab Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o‘rganish jarayoni boshlandi va Abdurauf Fitrat o‘zining “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida” (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali, 1925-yil) va “Farhodu Shirin” dostoni

[24] Qarang: Назарова Ш. Устоз таржимонлар бисотидан: Чўлпон. Элимга танитмоқ истайман // Жаҳон адабиёти, 2013, 11-сон.

[25] Тагор Р. Нур ва соялар // Шарқ юлдузи. 1956, 5-сон. Б. 45; Тагор Р. Скелет (ҳикоя) // Шарқ юлдузи, 1958, 9-сон. – Б. 26; Тагор Р. Насрий асарлар. Учиб келган қушлар // Шарқ юлдузи, 1961, 5-сон. – Б. 72.

[26] Qarang: Jalolov T. O‘zbek shoiralari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1970. – B. 19–21.

to‘g‘risida” (“Alanga” jurnali, 1930-yil) maqolalari bilan jarayonning tamal toshini qo‘ydi. Ammo bu davrgacha ham navoiyshunoslik uchun arzirli bir qancha manbalar bo‘lgan. Sababi 1919-yildan Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o‘lka musulmonlari byurosi tomonidan tayyorgarlik boshlab yuborilgan edi. 1925-yilning yozida qaror ham qabul qilinadi. 1926-yil 4-mart sanasida Birinchi turkologiya qurultoyi doirasida Boku shahrida Navoiy yubileyi bo‘lib o‘tgan. V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Kupruluzoda, V.Cho‘ponzoda va boshqa bir qancha izlanuvchilar tomonidan ma’ruzalar qilinib, matbuotda ko‘plab maqolalar bosilgan[27]. 10–20-yillar adabiy jarayoniga nazar tashlasak, bizda ayni o‘sha paytda adabiyot tarixini tiklash, adiblar biografiyasini ko‘rib chiqish masalalari muhim bo‘lganligini kuzatamiz.

Bu davrda bosilgan Navoiy haqidagi materiallarni mazmuniga qarab ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Shoir shaxsiyatini bilishga intilish yo‘lida yozilgan maqolalar.
2. Shoir ijodini o‘rganish va uni boshqa ijodkorlar bilan qiyoslash yo‘lida yozilgan maqolalar.

1920–1930-yillar oralig‘ida “Ishtirokiyun”, “Bolalar dunyosi”, “Turkiston”, “Qizil O‘zbekiston”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Alanga”, “Yangi Farg‘ona”, “Yer yuzi” kabi gazeta va jurnallarda Navoiy haqida yigirmadan ortiq maqolalar e’lon qilingan, bundan tashqari, bir qancha majmualar tarkibida yoki yakka kitob holida shoir haqida ma’lumotlar chop etilgan. Ularning umumiy soni 29 tani tashkil qiladi. Xususan, F.Rahmonning “Navoiy. Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1928-yil, 5–6-sonlar) Navoiyning “Mantiq ut-tayr”ga bog‘lanib qolgani bayon qilinadi va shoirning bu borada yozgan satrlari keltirib o‘tiladi. Yana maqolaning “Navoiyning turk tili tarafdorlig‘i” qismida Navoiy va Binoiy o‘rtasida kechgan tortishuvlarga ham alohida urg‘u beriladi: “Navoiy bilan Binoiy orasida tortishlar bo‘lur edi. Bu tortishlarni hazil-mutoyibalardan deb bo‘lmaydir. Binoiy har vaqt turk tilini yomonlar, fors tilini yoqlar edi. Shuning uchun Navoiy bilan Binoiy oralarida har vaqt tortish bo‘lib keldi. Hatto Binoiy Navoiyning o‘ldurishidan qo‘rqib, bir necha vaqt Hirotni tashlab qochib yuradir. Qaytib kelganda, Tabriz hokimi Ya’qubbek ahvolidan so‘rag‘onda, Binoiy “Ya’qubbekning buyuk fazilati turkiy so‘zlamasligidir”, degan javobi haqiqatan ochiq pichingdir...”[28] Maqolaning yangiligi shunda ediki, unda Binoiy va Navoiyning nizolari ochiq bayon qilingan. Bu manba yaratilgunga qadar esa bu tortishuvlar haqida faqatgina Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida qaydlar mavjud edi[29]. Su jihatdan ham maqola qimmatli ahamiyatga ega.

Ismoil Hikmatning “Navoiyda lirizm” maqolasi “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 1928-yildagi 7-sonida bosilgan. Unda shoirning shaxsiyatidan ko‘ra ijodiga e’tibor qaratilgan. Olim ijodkorning eng katta yutug‘ini uning forsiy tilda emas, turkiy tilda ijod qilganligi bilan belgilaydi va Jomiyning bu haqdagi quyidagi fikrini keltiradi: “Navoiyning forsiycha yozmaslig‘ini fors shoirlari uchun bir saodat talaqqi etardi...”[30] Olim Navoiy ijodidagi g‘azallarda lirizm aniqroq ko‘zga tashlanadi, deb hisoblaydi va

[27] Boltaboyev H. Alisher Navoiyning ilk yubileyi // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2016. № 2, – B. 129–137.
[28] O‘sha manba. – B. 54.
[29] Qarang: Бобур З.М. Бобирнома. – Тошкент: ФА нашриёти, 1960. – Б. 242–243.
[30] Ҳикмат И. Навоийда лиризм // Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 1928. – № 7. – Б. 35–37.

uning “Manga” va “Bo‘lg‘on balo” radifli g‘azallarini baholaydi. Maqolada, shuningdek, Fuzuliydan oldin usmonli turklarning shoirlari, xususan, Validdinzoda Ahmad Posho ham shoir g‘azallariga naziralar yozganligi qayd etiladi. Bu davrdagi biz tadqiq qilgan tekshirishlar o‘zidan keyingi davr navoiyshunosligi uchun poydevor bo‘lgan. Chunki keyinchalik H.Olimjonning “Navoiy – o‘zbek tilining yaratuvchisi” (1938-yil), “Farhod va Shirin” haqida” (1938-yil), “Navoiy va zamonamiz ” (1940-yil), maqolalari “Tanlangan asarlari”da chiqishidan oldin matbuot sahifalarida bosilgan.

Dissertatsiyaning 3-bobi esa **“Jadid adabiyotshunosligida G‘arb nazariy tafakkuri an’analari va G‘arb adabiyoti adabiyoti tadqiqi”** deb nomlanib, 1-faslda ***“Jadid matbuotida G‘arb adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodining yoritilishi”*** mavzusidagi fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanadi. XVIII asrda Yevropa adabiyotida kuzatilgani singari XX asrda o‘zbek adabiyotida ham jiddiy sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi va jadid adabiyotshunosligi zimmasiga yangi vazifa yuklandi. Xalq ijtimoiy ongining o‘sishi bilan bog‘langan yangilanayotgan jadid adabiyotshunosligi endi nafaqat Sharq adabiyotini, balki G‘arb adabiyotini ham tadqiq qilishi zarur edi. Bu borada yana jadid matbuoti eng ishonchli yordamchi vazifasini o‘tadi. Ayniqsa, XX asrning 20–yillari jadid matbuotida G‘arb adabiyoti masalalari keng yoritilgan. Jadid matbuotida L.Tolstoy, Mayakovskiy, V.Shekspir, A.S.Pushkin, Lermontov, Gogol kabi mashhur adib va shoirlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan o‘ttizdan ortiq maqolalar chop etilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. H.Nuriy. Rusiyaning buyuk adiblari	“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1926.
2. Saidg‘ani. Pushkin	“Yer yuzi” jurnali. 1927.
3. Cho‘lpon. Jurjdandin (Moler)	“Zarafshon” gazetasi. 1927.
4. Muallifsiz. Maksim Gorkiyning yubilayi	“Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1928
5. Muallifsiz. Maksim Gorkiy va proletariat adabiyoti	“Yer yuzi” jurnali. 1928
6. Muallifsiz. Maksim Gorkiy	“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1928
7. Rafiali. Shekspir	“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1928
8. Rahim Ali. Lef Nikolay o‘g‘li Tulstuy	“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1928
9. V.Friche. Tulstuy to‘g‘risida	“ Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1928
10. H. Badriy. Lef Tulstuyning tug‘ilg‘onig‘a yuz yil	“Yangi yo‘l” jurnali. 1928
11. A.V.Lunacharskiy. Lef Tulstuy yubileyining ahamiyati to‘g‘risida	“Alanga” jurnali. 1928
12. Muallifsiz. L. N. Tolstoy	“Yangi Farg‘ona” gazetasi. 1928
13. Usmon. Go‘zal so‘z ustasi (N.V. Gogol tug‘ilganiga yuz yil to‘lishi munosabati bilan).	“Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1929

Ushbu maqolalarning Gorkiy va Tolstoyga atalganlari, asosan, yubiley munosabati bilan yozilgan sodda tadqiqotlar edi. Rafialining **Shekspir** haqida yozilgan maqolasi qismlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning birinchisida muallif Shekspir hayoti, teatrdagi faoliyati, tarixiy xronikalari haqida gapirsa, ikkinchi qismda “Venetsiya savdogari”, “Romeo va Julyetta”, “Otello” asarlari haqida, uchinchi qismida esa

“Hamlet”, “Qirol Lir” asarlari tahlil qilinadi. Muallif Shekspirning tarixiy xronikalarini bu asarlarni tadqiq qilgan adabiyotshunoslar ikki guruhga bo‘lishini aytadi: ularning birinchisida zaif, kuchsiz qirollar tasvirlangan bo‘lib, bu guruhga “Qirol Jon”, “Richard II”, “Genrix VI” kabi dramalar kiritiladi. Ikkinchi guruhda esa kuchli qirollar tasvir etiladi va bu guruhda “Genrix IV”, “Genrix V”, “Richard III” kabi dramalar sanaladi. Muallif bu dramalar odatan og‘irligini aytib, ulardan “xiyonat va qon hidi” kelib turishini ta’kidlaydi. “Richard III” dramasi Rafiali tomonidan Shekspirning eng yorqin dramalaridan deb baholanadi, “O‘n ikkinchi kecha” komediyasi esa Shekspir ijodidagi eng yaxshi komediya bo‘lib, Rafiali asardagi qahramon ayollarga alohida urg‘u beradi va ularni “badiiy shaxsiyat, jonli bir xayol” deb ta’riflaydi. “Venetsiya savdogari” (manbada “Venedik savdogari”) asari “bir nafrat va intiqom fojiasi” deb baholangan. Maqola Shekspir asarlari chuqur tahlil qilingan manba sifatida qimmatlidir.

“Rusiyaning buyuk adiblari” maqolasi Kubikov (manbada Qubikuf) qalamiga mansub ruscha maqolaning H.Nuriy tomonidan o‘zbekchalashtirilgani bo‘lib, u 1926-yil “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 3-, 4-, 5-sonlarida bosilgan va oxiriga yetmagan. Muallif XIX asrning 20–yillarigacha bo‘lgan davrni rus adabiyotining islohiga tayyorgarlik davri, deb baholaydi va bu yillarda ikki katta adib – Griboyedov va Pushkinning “maydong‘a chiqqanlig‘i”ni ta’kidlaydi. Muallif Pushkinning bir necha she’rlari, “Yevgeniy Onegin” asarini chuqur tahlil qiladi; Lermontovning “Zamonamiz qahramoni” asarini oqsuyaklar hayotining bo‘shliqlarini tasvirlagan, deya baholaydi; Gogolning Pushkin va Lermontovdan ustunligi deb uning “muralist”(axloqchiligi)ligini belgilaydi.

Ushbu bobning 2-fasli ***“G‘arb adabiyoti namunalaridan tarjimalarning ahamiyati”*** deb ataladi. Bu faslda alohida kitob holida chop etilgan tarjima asarlar hamda davriy nashrlardagi G‘arb adabiyotidan qilingan tarjima asarlar mundarijasi beriladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yurtimizda tarjimachilikning keng taraqqiy etishi jadid adabiyoti davriga to‘g‘ri keladi. 1870-yilda chiqa boshlagan “Turkiston viloyatining gazeti” tarjima masalalariga alohida urg‘u berishni boshlagan nashrlardan hisoblanadi. Chunki 1883-yilga kelib gazeta rus va o‘zbek tillarida chiqishni boshlagan. 1905-yildan keyin esa o‘z sahifalarida rus, qozoq, tojik, tatar, ozarbayjon tillaridagi siyosiy va badiiy asarlarning namunalarini chop etishni boshlagan. Bu davrda Shohimardon Ibrohimov, Chanishev, Aydarov, Sattorxon, Mullo Olimlarning matbuotda bosilgan tarjimalari katta ahamiyatga ega.

Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima asarlar haqida yozganda, Sattorxon nomini alohida eslash maqsadga muvofiq. Chunki olim, pedagog, tarixchi bo‘lgan ijodkor 1883-yildan 1890-yilgacha “Turkiston viloyatining gazeti” tahririyatida tarjimon rasmiy lavozimida ishlagan va bu davrda A.Fet she’rlari, Tolstoy hikoyalari va qadimgi yunon faylasuflaridan hikmatli so‘zlarni ruschadan o‘z tilimizga o‘giradi. 1890-yildan 1917-yilgacha gazeta tarjimoni bo‘lgan Mulla Olim esa Pushkinning she’r va ertaklarini tarjima qilishda ishtirok etgan deb taxmin qilinadi.

Rus adibi Tolstoyning “Chol bilan ajal”, “Bog‘bon”, “Podsho bilan mujik”, “Xizmatkor bilan ot hikoyasi”, “Ipak qurti”, “Arslon, eshak ham tulki”, “Yaxshilikka yomonlik”, “Ko‘r kishi” kabi jami 32 ta masal, hikoyalari ham aynan mana shu davrda turli o‘zbek tilida chiqqan terma kitoblar – xristomatiyalarga kiritilgani, ammo adib

nomi koʻrsatilmagan. Shuningdek, Krilovning bir qancha masallari tarjimasi ham jadid tarjima maktabini boyitgan.

"Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida 1900-yili Konfutsiy va uning hikmatlari haqida maqola; 1901-yili rus tilidan qilingan "Bir masehr daraxtzor toʻqay" nomli ertaknamo hikoya tarjimasi; 1902-yili rus tilidan "Olloh hammasini koʻrsa ham, tez javob qaytarmaydi" hikoyasi, Krilovning "Boʻri va Laylak", "Ovdagi arslon", "Maymun ila koʻzoynak" masallari, qirgʻiz tilidan tarjima qilingan qirgʻiz maqollaridan namunalar; 1903-yildagi sonlarda bosilgan "Bir vafolik zaifa xususida hikoya" nomli ruscha hikoya; 1904–1905-yillardagi tojikcha she'rlar tarjimalarini ham alohida sanash mumkin.

Ajziy Tolstoyning bir qancha hikoyalarini, Krilovdan masallar, Gogolning "Shinel" asarini oʻzbek va tojik tillariga tarjima qilgan ma'rifatparvar sifatida qadrlanadi, bu ishlar 1908–1910-yillarda amalga oshirilgan. Abdulla Avloniy ham arab, fors, rus tillarini bilgani holda, Tolstoydan hikoyalar, Ushinskiy asarlaridan namunalarni oʻzbekchalashtirgan.

1911-yilda esa "Robinzon Kruzoning sayohatlari" asari oʻzbek tiliga ingliz adabiyotidan qilingan ilk tarjima boʻlib tarixga kirdi. Bu kitobni Muhammad Fozil Otabek ozarbayjoncha bayon tarjimadan oʻgirgan. Jadid adabiyoti davridagi tarjima qilingan asarlarni ikkiga boʻlib tahlil qilish maqsadga muvofiq boʻladi: Alohida kitob holida yoki darslik tarkibida chiqqan tarjimalar va matbuot sahifalaridagi tarjimalar. Mazkur faslda alohida kitob holida yoki darsliklar ichida kelgan 10 ta, "Maorif va oʻqitgʻuchi" jurnalida chiqqan 16 ta, "Yer yuzi" jurnalida chop etilgan 25 ta asarlarning ayrimlari tahlil qilinadi. 1927-yilda Yelena Zart qalamiga mansub "Koʻhi Malak", "Devona", "Mirob", "Qimmat" nomli asarlar Choʻlpon qalami bilan tarjima qilingan. Ulardan "Mirob" hikoyasini Ahmad Boyish ham 1926-yil "Maorif va oʻqitgʻuchi"da tarjima qilib, chop ettirgan edi. Ular "Sharq hikoyalari" turkumidan boʻlgani uchun ham, asosan, Turkiston turmushiga yaqin voqealar qalamga olingan.

1925-yilda nashr etilgan "Goʻzal yozgʻichlar" nomli darslik tarkibida bir necha ruscha hikoyalarning tarjimalari uchraydi. Ruschadan tarjima qilingan "Qush qoʻshigʻi" (56–59-b.), "Binafsha" (73–77-b.), Divayev qalamiga mansub "Fol koʻruvchi chol" (98–103-b.) hikoyalari shular jumlasidandir. Yana muallifi keltirilmagan "Omonat" hikoyasi ham beriladi. Tarjima deya berilgan "Fol koʻruvchi chol" hikoyasi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida uchraydigan "Avom folchi" ertagining aynan oʻzi deyish mumkin[31].

Jadid adabiyoti davrida badiiy tarjimachilik bir paytlar juda taraqqiy etgan tarjimachilik maktablarining davomi sifatida iz qoldirdi. Tarjima maktablari mavjud boʻlmasa ham, har bir mutarjim oʻz an'anasi va oʻz uslubini yaratgani holda dunyo adabiyoti namunalari bilan oʻzbek oʻquvchilarini tanishtirib borishdi. Bu esa, oʻz navbatida, jadid adabiyotshunosligi uchun alohida yoʻnalish sifatida Sharq va Gʻarb adabiyoti tadqiqi rivojiga munosib hissa qoʻshdi.

[31] Qirq yolgʻon. Oʻzbek xalq ertaklari. (Tuzuvchi: Asqaraliyeva Z.) – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 58–76.

XULOSA

Tadqiqotimiz qamrovidagi manbalarni tekshirib, tahlil qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Jadid adabiyotshunosligining yuzaga kelishida Qur'on va Hadis ilmi, ilmi balog'a, mumtoz adabiyot, Sharq va G'arb adabiyotshunosligi asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. Yangi adabiy-estetik tafakkur, eng avvalo, o'ziga axloqiy-ma'naviy manbalarni asos qilib olgan edi. Ifodaning ravonligi va aniqligi asosiy mezon bo'lib, badiiy tasvir vositalarini uslubiy kuch sifatida talqin qilish davom ettirildi. Sharq adabiy an'analari va G'arb estetik tafakkuri sintezi natijasi o'laroq yangi adabiy janrlar yuzaga keldi, badiiy asarga yondashuvning ilmiy jihatlari qayta ko'rib chiqildi, pedagogik adabiyotshunoslik shakllandi, adabiyotshunoslikdagi bir necha masalalar nazariy jihatdan oydinlashdi.

2. Sharq va G'arb adabiyotini tadqiq qilish jarayoni o'sha davr ijtimoiy hayotidagi g'arblashish va turkchilik hodisalari bilan bevosita bog'langan edi. Chunki jadidlarning bir qismi dunyoga g'arbcha nigoh bilan boqib, rivojlanishni yoqlasa, yana bir qismi etnik ildizlarimiz tutashgan millatlar bilan bir o'zanda bo'lishga chorlardi. "Maorif va o'qitg'uchi", "Inqilob", "Alanga", "Yer yuzi", "Bilim uchquni", "Tong yulduzi", "Bilim o'chog'i", "O'zgarishchi yoshlar", "Mushtum", "Qizil O'zbekiston", "Zarafshon", "Qizil yo'l", "Xudosizlar", "Yosh kuch", "Ko'mak", "Yangi yo'l" kabi davriy matbuot namunalari bu masalaga alohida e'tibor qaratib, o'z sahifalarida maxsus ruknlar tashkil qilishgani fikrimizni dalillaydi.

3. Jadid adabiyotshunosligining taraqqiy topishi va rivojida Abdurauf Fitrat hamda Abdurahmon Sa'diyning xizmatlari katta. Ularning boshqa safdoshlaridan asosiy farqi har bir mavzuga chuqur kirib tahlil qilgani va muammoni sof ilmiy tamoyillar bilan asoslashga urinishlarida edi. Sharq adabiyotidan "suv ichgan" va G'arb adabiyotiga ergashishni boshlagan yangi o'zbek adabiyotining nazariyasiga tamal toshi aynan "Adabiyot qoidalari" va "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" kitoblari bilan qo'yildi. Ushbu kitoblarda Sharq va G'arb adabiyotining yuzdan ortiq vakillari ijodi tahlil qilingan. Fitratning Yassaviy, Turdi, Bedil kabi Sharq mutafakkir ijodkorlari haqidagi ishlari ilmiy faktlarga asoslangan ilk maqolalardan sanaladi.

4. Sharq va G'arb adabiyotini tadqiq etish jarayonida jadid matbuoti eng katta yordamchi bo'lgani sir emas. Xususan, "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 1925–1929-yillardagi chop etilgan sonlarida jami ellikka yaqin ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, ularning yarmidan ko'pi Sharq va G'arb adabiyoti masalalariga bag'ishlanadi. "Yer yuzi" jurnali sahifalarida esa ular deyarli yigirmatani tashkil qiladi. Bundan tashqari jadid darsliklaridagi shu mavzuga taalluqli kichik tadqiqotlar yordamida maktab o'quvchilari bilan bir qatorda oddiy adabiyot ixlosmandlari ham bu manbalardan bahramand bo'lishgan.

5. O'zga millatlar adabiyotini tadqiq qilish yozilajak asarlar badiiyati va mavzu ko'lamiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan ham XX asrda boshlangan adabiy yangilanishlar "yangi davr o'zbek adabiyoti"ning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mumtoz adabiyotimiz vakillari bilan bir qatorda Firdavsiy, Bedil, Xayyom, Fuzuliy, Tagor kabi Sharq mumtozlarining hayoti va ijodini o'rganish yangi davr adabiyotiga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi: adabiyotimizda xotin-qizlarning huquqlarini himoya

qilib yozilgan asarlar ko‘paydi, badiiy asarda qahramon ruhiy holatini chuqurroq tahlil etish, peyzajni portretga bog‘lagan holda berish, voqealardagi tugallikka amal qilish kabi jarayonlar bir muncha mukammallashdi.

6. Sharq adabiyotining yirik vakili, turkiy millatlarning “malik ul-kalomi” bo‘lgan Alisher Navoiyni tadqiq qilish bo‘yicha jadid adabiyotshunosligi davrida o‘ttizdan ortiq manbalar mavjud edi. Bu manbalarning aksariyati tanituv maqolalari, ayrimlari adabiy bahs, ayrimlari esa alohida kitob shaklida bo‘lgan. Ularning eng avvalgi vazifasi shoir shaxsini imkon qadar ko‘proq ommaga tanitish va asarlari yuzasidan turli ikkilanishlarni bartaraf etish, yagona tizimli qarashlarni shakllantirish edi. Chunki aksariyat ilmiy ishlar o‘zidan oldingi ma’lumotlarga tayanib yaratilar, yangi ma’lumotlarni analiz-sintez qilish jarayonlarida toblanmagan edi. Shu jihatdan Ismoil Hikmat, Vadud Mahmud va Ashurali Zohiriyning tekshirishlari boshqalaridan ajralib turadi.

7. 1919-yildan Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun boshlangan harakatlar o‘zining amaliy natijalarini ko‘rsatmay qolmagan. Bu jarayonda nafaqat jadid ziyolilari, balki qardosh xalq adabiyotchilari, shuningdek, rus tadqiqotchilari ham faol qatnashishgan. V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Kupruluzoda, V.Cho‘ponzoda bilan bir qatorda, G‘ozi Yunus, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmud, Abdulla Alaviy, Said Ma’ruf, Abdurauf Fitrat, F.Rahmon kabi olimlarning katta-kichik maqola va chiqishlari jadid adabiyotshunosligida Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi.

8. Jadid adabiyotshunosligi davrida G‘arb adabiyotini o‘rganish asosan, rus ijodkorlari doirasida amalga oshirilgan. Buning ajablanarli joyi yo‘q, nazarimizda. Chunki yangi davr adabiyotshunosligini shakllantirish jarayonida ilmiy-nazariy asoslar bevosita rus olimlarining ishlaridan andoza olgan holatda kechgan. Asosan, Maksim Gorkiy, Lev Tolstoy, Pushkin, Gogol hayoti va ijodi o‘rganilish obyekti edi. Pushkinning “Dubrovskiy”, “Bekat nazoratchisi”, “Yevgeniy Onegin” kabi asarlari tahlil qilingan bo‘lsa; Lermontovning “Zamonamiz qahramoni”, “Demon” asarlari va bir qator she’rlari; Gogolning “Uylanish”, “Revizor”, “Shinel” va “O‘lik jonlar” kabi asarlari haqida mulohazalar beriladi. Ijodkorga o‘z zamondosh adabiyotshunoslari tomonidan berilgan bu kabi baholar jadid adabiyoti uchun ham zarur edi.

9. Yevropa uyg‘onish davrining yetuk namoyondasi Vilyam Shekspir haqida kattagina tanituv maqolasi aynan jadid adabiyotshunosligi davrida yaratilgani e’tiborga molik hodisa edi. Chunki o‘tmish adiblari orasidan aynan Shekspirning asarlari sahnadan tushmay kelar va o‘zida insoniy qadriyatlarni namoyon etuvchi xarakterga ega edi. Shu jihatidan uning asarlarida jadid adabiyotiga yaqinlik kuzatiladi. Ijodkorning asarlari guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Bu esa bizning adabiyotshunoslarga ham tasniflab tadqiq qilish imkoniyatlarini ochib bergan. Muallif bu maqolasida Shekspirning ijodini taraqqiyot bosqichlariga bo‘lib o‘rganadi. Ya’ni avval xasislik fojialari deb baholangan asarlari, keyin unga favqulodda shuhrat olib kelgan asarlari, so‘ngra inson qalbining shiddatli tuyg‘ulari kuylangan tragediyalari, eng oxirida pafosdan chekinib sokinlikni tanlagan Shekspir ijodi tahlilga tortilgan.

10. Jadid adabiyoti davrida badiiy tarjimachilik bir paytlar juda taraqqiy etgan tarjimachilik maktablarining davomi sifatida iz qoldirdi. Tarjima maktablari mavjud

bo‘lmasa ham, har bir mutarjim o‘z an’anasi va o‘z uslubini yaratgani holda dunyo adabiyoti namunalari bilan o‘zbek o‘quvchilarini tanishtirib borishdi. Bu esa, o‘z navbatida, jadid adabiyotshunosligi uchun alohida yo‘nalish sifatida Sharq va G‘arb adabiyoti tadqiqi rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Ajziy Tolstoyning bir qancha hikoyalarini, Krilovdan masallar, Gogolning “Shinel” asarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan ma’rifatparvar sifatida qadrlansa, Abdulla Avloniy ham arab, fors, rus tillarini bilgani holda, Tolstoydan hikoyalar, Ushinskiy asarlaridan namunalarni o‘zbekchalashtirgan.

11. Jadid adabiyoti davridagi tarjima qilingan asarlarni ikkiga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi: matbuotda va kitob holida chiqqan tarjimalar. “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida chiqqan 16 ta, alohida kitob holida yoki darsliklar ichida kelgan 10 ta, “Yer yuzi” jurnalida chop etilgan 25 ta asarlar borligi bizga ma’lum. Ularning ayrimlari bir necha mutarjim tomonidan o‘zbekchalashtirilgan bo‘lsa, ayrimlari yaxlit holda badiiyat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

ФАЙЗИЕВА САОДАТ ИХТИЁРОВНА

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В УЗБЕКСКОЙ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

10.00.01 – Узбекская литература
(Узбекская литература XX века и современный литературный процесс)

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.2.PhD/Fil2466.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsuull.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Каримов Баходир Нурметович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Юсупова Дилнавоз Рахмановна** доктор филологических наук, профессор
	Рахмонова Дилдора Мирзакаримовна доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Ведущая организация:	**Государственный литературный музей имени Алишера Навои Академии наук Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы им. Алишера Навои в «26» 08 2025 года в 9:00 часов (Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Ходжиб, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована под № 365). Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Ходжиб, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Автореферат диссертации был распространен «10» 08 2025 года.

(Регистрационный номер № 1 - от «10» 08 2025 г.)

Ш.С. Сирожиддинов
Председатель Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, академик

К.У. Пардаев
Ученый секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Н.А. Джабборов
Председателя научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Автореферат диссертации доктора философских наук)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В развитии мирового литературно-эстетического мышления корни, питающие дух нации, имеют важное значение. У каждого народа есть литературное наследие и уникальные традиции, которые служат удовлетворению духовных потребностей этого народа и повышению его культурного уровня. Литература, будучи одним из таких факторов, является воплощением духовного мира человека. Движение джадидов, возникшее как историческая необходимость в условиях крайне отсталой экономической, социальной и культурной ситуации конца XIX – начала XX веков в Туркестане, ставило своей целью просвещение народов, проживающих в этом регионе, проведение социальных и культурных реформ в жизни общества, а также реализацию идей свободы и независимости. На первом этапе своего становления – с начала века до Февральской революции 1917 года – это движение окончательно сформировалось не только как просветительское, но и как социальное явление. Ведь «цель этих великих деятелей заключалась в том, чтобы вооружить народ Туркестана, погружённый в пучину невежества и отсталости, знаниями о светской науке, передовыми профессиями и вывести его на путь общечеловеческого развития. Школы нового типа, театры, библиотеки и музеи, организованные джадидами, газеты и журналы, благотворительные общества, созданные с целью отправки детей Туркестана на учёбу за рубеж, разбудили наш народ от многовекового сна и стали неоценимой силой для национального движения за освобождение»[32].

Можно сказать, что джадидское литературоведение является краеугольным камнем современного узбекского литературоведения в мировой литературе, в частности теории литературы и литературной критики. Потому что литературоведы той эпохи (Абдурахмон Саадий, Абдурауф Фитрат, Чулпон, Элбек и другие), стремясь заново смоделировать узбекское литературоведение, обогатили его принципами мировой литературной науки[33]. Изучение восточной и западной литературы отдельно и в сравнении также способствовало дальнейшему развитию этого процесса.

Традиция изучения восточной литературы, её перевода и анализа формировалась с самых ранних периодов узбекской литературы. Это видно как в перекочёвывающих сюжетах в произведениях, так и в записях о жизни и творчестве поэтов в тазкирах. В период джадидского литературоведения эта традиция получила дальнейшее развитие, и круг исследования охватывал не только деятелей литературы, живших на территории

---

[32] Uchinchi Renessans nima degani? O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-avgust kuni matbuot vakillariga bergan intervyusidan. https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/#!

[33] Смотрите: Фитрат.Танланган асарлар. 2 жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 256; Фитрат. Танланган асарлар. V жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 336; Саъдий А. Амалий ҳам назарий амалиёт дарслари. – Тошкент: Ўрта Осиё давлат нашриёти, 1924; Чўлпон. Адабиёт надир. (Нашрга тайёрловчи Қуронов Д, Эшонова З, Султонов У.). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б. 240; Элбек. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Узоқов). – Тошкент: Шарқ, 1999. – 288 б.

Туркестана, но и представителей литературы ближневосточных и китайских регионов.

История западной литературно-эстетической мысли была предметом постоянного интереса джадидов. Поездки с целью получения образования, формирование навыков чтения литературы на других языках, приобретение опыта и обогащение современного мировоззрения способствовали ускорению этого процесса. Появление новых жанров в джадидской литературе в начале XX века не только увеличило объекты исследования литературоведения, но и способствовало формированию новых методов и жанров исследований.

Джадидская пресса, став в 20–30-х годах XX века основным источником литературоведения, создала в ряде газет и журналов отдельные рубрики, посвящённые литературе, анализу, переводу и литературной критике. Среди таких изданий можно назвать «Qizil yo‘l», «Yosh kuch», «O‘zgarishchi yoshlar», «Bilim o‘chog‘i», «Ko‘mak», «Inqilob», «Zarafshon», «Mushtum», «Maorif va o‘qitg‘uchi», «Qizil O‘zbekiston», «Yer yuzi», «Bilim uchquni», «Alanga», «Tong yulduzi», «Xudosizlar», «Yangi yo‘l».

Указы Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного языка», от 20 октября 2021 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране», Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года № ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, изучения и популяризации древних письменных источников», Распоряжение Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-Р «О проведении международной конференции на тему “Актуальные вопросы изучения и популяризации узбекской классической и современной литературы на международном уровне”», а также Постановления от 3 марта 2020 года № 117 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» и от 10 февраля 2021 года № 61 «О мерах по обеспечению поэтапного полного перехода на узбекскую письменность на основе латинского алфавита», наряду с другими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сферы, в определённой мере способствуют реализации задач, обозначенных в настоящей диссертационной работе.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики: I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном

и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Литературно-критические взгляды джадидских просветителей начала XX века на джадидскую литературу и её развитие могут быть рассмотрены в качестве отправной точки настоящего исследования. Теоретические и практические аспекты узбекского джадидского движения и его влияния на различные сферы жизни в определённой степени исследованы как в мировой, так и в узбекской литературоведческой науке. Изучение темы проходило параллельно с исследованием самого движения джадидов. В диссертациях таких учёных, как Х. Болтабоев, Д. Куронов, И. Ганиев, Б. Каримов, Н. Джабборов, У. Джуракулов, Г. Эрназарова, Н. Намозова и других[34], а также в трудах и исследованиях Б. Косимова, Н. Каримова, С. Ахмада, У. Долимова, Б. Дусткораева, Б. Каримова, З. Абдирашидова[35], в библиографических материалах Б. Кариева, Ш. Турдиева, И. Ганиева и Н. Афоковой, Ф.Нуриддиновой[36], а также в книгах и статьях ряда других исследователей[37]

---

